LAYLO SHARIPOVA SHE'RIYATIDA METAFORIK TAFAKKURNING BADIIY IFODASI

Raximova Iroda Shomurotovna
Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21397898

Annotatsiya: Ushbu maqolada Laylo Sharipova she'riyatida metaforik tafakkurning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoiraning lirik asarlarida metaforaning obraz yaratish, ruhiy kechinmalarni ifodalash hamda falsafiy mushohadalarni badiiy shaklda yoritishdagi o‘rni yoritiladi. Tahlil jarayonida shoiraning turli davrlarda yaratilgan she'rlari asosida metaforik tafakkurning individual uslubi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: poetika, metaforik tafakkur, lirik matn, poetik obraz, ramz, badiiy tafakkur, Laylo Sharipova.

Zamonaviy o‘zbek she'riyatida badiiy tafakkurning obrazli namoyon bo‘lishi ijodkor individual uslubining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ayniqsa, metafora lirik matnda nafaqat badiiy bezak, balki muallifning olamni idrok etish usulini ifodalovchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi va badiiy tafakkurning eng muhim ifoda vositalaridan biri sifatida ijodkorning borliqni anglash va talqin etish usulini namoyon qiladi. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, "Metafora inson dunyoqarashi takomili bilan bog‘liq tushuncha, uning asosida bilim va malaka yaxlitligi jilvalanadi."[1] Mazkur fikr metaforaning nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki inson tafakkuri va estetik idrokining mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Laylo Sharipova she'riyati o‘ziga xos poetik tafakkur tizimi bilan e'tiborni tortadi. Shoiraning lirik asarlarida tashqi tabiat manzarasi ko‘pincha inson qalbining ichki olami bilan uyg‘unlashtiriladi. Tabiat hodisalari oddiy tasvir sifatida emas, balki ruhiy kechinmalarni ifodalovchi poetik obraz darajasiga ko‘tariladi. Bu esa metaforik tafakkurning yetakchi xususiyatlaridan biridir.

Masalan, «Yupanch» she'rida:

«Qalbim uyi uzra serbulut osmon...» misrasida qalb «uy» obrazida tasvirlanadi. «Serbulut osmon» esa inson ruhiyatini qamrab olgan iztirob va tushkunlikning metaforik ifodasiga aylanadi. Keyingi misralarda:

Sho‘r yomg‘ir yog‘adi, yog‘adi sim-sim,
G‘uncha – lab marvarid zirak osadi.
Qalbimning uyida yolg‘iz tuyg‘u jim,
Deraza ko‘ziga yuzin bosadi.

«Sho‘r yomg‘ir yog‘adi...» tasviri tashqi tabiat hodisasi emas, balki ko‘z yoshlari va ruhiy iztirobning poetik ramzidir. Demak, metafora lirik qahramonning ichki kechinmalarini obrazli ifodalash vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Shoiraning «Ruhim – hudud bilmagan olam...» she'rida esa metaforik tafakkur yanada murakkab badiiy tizim hosil qiladi. Ruhning «hudud bilmagan olam» sifatida talqin etilishi inson qalbining cheksizligini anglatadi. She'r davomida bir vaqtning o‘zida bahor, yoz, kuz va qish fasllarining ruh ichida mujassamlashtirilishi inson tabiatidagi hissiy holatlarning rang-barangligini ifodalaydi. Bu yerda fasllar vaqt tushunchasini emas, balki ruhiy kechinmalarni bildiruvchi poetik timsollarga aylangan.

«Bu besh kunlik dunyo...» she'rida metaforik tafakkur hayotning mohiyatini falsafiy mushohada orqali anglashga xizmat qiladi.

[1] I.A. Qurbanbayev “Metafora badiiy tafakkur mexanizmini shakllantirish omili sifatida”

Bu besh kunlik notavon dunyo,
G‘ariblarning volidasi ul.
Besh lahzada asriy vovaylo,
Dunyo – chaman, dunyo – siqim kul.

She'rning ilk misralaridanoq dunyo obrazi foniy, o‘zgaruvchan va ziddiyatli makon sifatida talqin etiladi. «Besh kunlik» birikmasi xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotda dunyoning foniy va o'tkinchi ekanligini ifodalovchi an'anaviy poetik birlik sifatida keng qo‘llaniladi. Jumladan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham «Besh kunlik naqd umrni qo‘ldan berib...» tarzidagi ifoda orqali inson umrining qisqaligi va dunyoning o'tkinchiligi ta'kidlanadi.[2] «Notavon dunyo» metaforasi esa mazkur an'anaviy tasavvurni individual poetik talqin bilan boyitib, hayotning beqarorligi, inson taqdiri oldidagi ojizlik va vaqtning shafqatsiz oqimini badiiy umumlashtiradi. Metafora aynan shu jihati bilan muallifning falsafiy-estetik qarashlarini ifodalovchi muhim poetik vositaga aylanadi.

Shu tariqa shoira inson umrining qisqaligi bilan uning ruhiy kechinmalari va hayot sinovlari o‘rtasidagi murakkab munosabatni badiiy umumlashtiradi. She'rda dunyoning «g‘ariblarning volidasi» tarzida talqin qilinishi o‘ziga xos metaforik yangilikni yuzaga keltiradi. Bu obraz orqali hayot faqat quvonch va farovonlik manbai emas, balki insonni sinovlardan o‘tkazadigan, ruhiy jihatdan chiniqtiradigan va kamolot sari yetaklaydigan makon sifatida gavdalanadi. Shoira dunyoni mehribon ona timsoli bilan bog‘lar ekan, bu mehr doimo sinov va saboq bilan uyg‘unligini ham anglatadi. Natijada metafora lirik qahramonning dunyo haqidagi falsafiy qarashlarini yanada chuqurlashtirib, obrazning ma'no qamrovini kengaytiradi. Asarda dunyoning bir vaqtning o‘zida «chaman» va «siqim kul» sifatida tasvirlanishi esa shoiraning poetik tafakkuriga xos antitetik yondashuvni namoyon etadi. Bir tomondan, dunyo go‘zallik, yasharish va umid timsoli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning foniyligi, yo‘qotishlari va umrning nihoyasi eslatiladi. Qarama-qarshi obrazlarning bunday uyg‘unligi hayotning murakkab tabiatini teranroq anglash imkonini beradi. Shoira hayotni faqat optimistik yoki fojiaviy nuqtayi nazardan emas, balki ana shu ikki qutbning o‘zaro birligi sifatida idrok etadi. Bu esa she'rning falsafiy-estetik qimmatini yanada oshiradi.

Mazkur she'rda metafora va antiteza vositalari o‘zaro uyg‘unlashib, lirik matnning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. Shoira dunyo obrazini an'anaviy tasvir doirasida qoldirmay, uni inson taqdiri, ruhiy iztiroblari va hayot falsafasini mujassamlashtiruvchi ko‘p qatlamli poetik timsol darajasiga olib chiqadi. Natijada she'rxon nafaqat dunyoning o'tkinchiligi haqida mushohada yuritadi, balki insonning ma'naviy kamoloti, hayot sinovlariga munosabati va yashash mazmuni haqida ham chuqur o‘yga toladi. Aynan shu jihatlar Laylo Sharipova poetikasida metaforik tafakkurning yetakchi badiiy tamoyillardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Shoira ijodida tabiat obrazlari ham metaforik tafakkurning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. «Kuzak» she'ridagi:

«Ruhimdagi xazon oldida
Bu sarg‘ayish nima bo‘libdi...»

misralarida kuz fasli tashqi manzara emas, balki qalbdagi iztirob va ma'naviy izlanishning poetik belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Xazon ramzi ruhiy tushkunlikni anglatsa-da, unda hayotiy tajriba va ichki kamolot ma'nolari ham mujassam.

«Yomg‘irjon...» she'rida yomg‘ir obrazining takrorlanishi sog‘inchning poetik ifodasini kuchaytiradi. Takroriy murojaat: «Yomg‘irjon, men uni juda sog‘indim...» lirik qahramonning ichki iztirobini tabiat bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada yomg‘ir oddiy tabiat hodisasi emas, balki ruhiy holatni ifodalovchi poetik ramzga aylanadi.

Umuman olganda, Laylo Sharipova she'riyatidagi metaforalar an'anaviy badiiy tasvir vositasi doirasidan chiqib, muallifning individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi estetik tizimni

[2] Sofiya Jumayeva. Mumtoz adabiyotda raqam poetikasi. “Tafakkur” Toshkent – 2025

shakllantiradi. Ular tabiat, inson ruhiyati va falsafiy mushohadalarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, lirik matnning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shoira she'riyatida metaforik tafakkur poetik obraz yaratishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira metafora vositasida inson ruhiyatining nozik qatlamlarini, hayotning falsafiy mazmunini hamda tabiat va inson o‘rtasidagi ichki uyg‘unlikni yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Metaforalar lirik matnning estetik ta'sirchanligini kuchaytirib, muallifning individual uslubini belgilovchi muhim poetik vositaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Laylo Sharipova. Oq armonlar. – Toshkent. (Buxoro, 1993)
2. Laylo Sharipova. Qismat suvrati. – Toshkent (G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996)
3. Karimov B. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent. 2011
4. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/473012/601b892237398.pdf
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr. 2004
6. Qurbanbayev I.A. “Metafora badiiy tafakkur mexanizmini shakllantirish omili sifatida” inlibrary.uz
7. Jumayeva Sofiya. Mumtoz adabiyotda raqam poetikasi. “Tafakkur” Toshkent – 2025